

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "MEAL" KONSEPTINING KOGNITIV-
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

N.P.Imamov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti v.b dotsenti

Tangirov Asadbek

MS-125 guruh talabasi

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.12.2025

Revised: 20.12.2025

Accepted: 21.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

ziyofat, ingliz konsepti,
metafora, freym, qiyosiy tahlil,
nuklear oila, dasturxon.

ANNOTATSIYA:

Ingliz tilidagi "meal" (ovqatlanish) konseptining ijtimoiy-emotsional xususiyatlarini tahlil qiladi. U ingliz va o'zbek madaniyatida nafaqat ovqatlanish balki do'stlik, oila davrasida suhbat, bu holat rasmiy nutq va metaforik vositalar orqali aks etadi. Maqolada inglizcha "table" va o'zbekcha "dasturxon" konseptlarining qiyosiy tahlili berilgan hamda milliy xususiyatlarning etnik mentalitet bilan bog'liqligi ta'kidlanadi.

Ingliz obrazli "ziyofat" emotsional ya'ni his-hayajon muhitini tahlil qilganimizda ma'lum bo'ldiki, Britaniya jamiyatida "ziyofat" degan so'z juda chuqur ma'naviyatli ijtimoiy barqarorlik va sokinlikka yega bo'lib "rasmiy jarayon, mehmondorchilik" tushunchasi bilan o'xshash, bu yerda esa iliqlik, qulay va shinam, juda yaqin qadrdon va o'zlik seziladi. Tahlillar natijasi: inglizlarga xoslik ana shu his-tuyg'u va makon yopiqligi ya'ni oshkora emasligidir. "Meal" kontseptining bu jihati ularning lingvistik madaniyatini oshkor etuvchi jarayon deb baholanadi. Chunki ushbu tadbirlarda rasmiylar sof grammatik shallangan ingliz tilida muloqat qilishadi. Masalan: He was false to a young housekeeper once attached to that family, and famous for her beauty, who drowned herself in a pond, and whose body was discovered, after a long time, because the stags refused to drink of the water (Charles Dickens,19); After breakfast, Charles Macdoodle told Lady Marry that it was a tradition in the family that those rumbling carriages on the terrace betokened death (Charles Dickens,21).

"Ingliz qarindoshchilik munosabatlardagi metaforik vositalar" ko'rildi va bunda ingliz tilidagi adabiyotlarda uchraydigan frazeologik birikmalar, maqollar, naqlar tahlil qilindi. Shuningdek ingliz badiiy adabiyotidagi obrazli ifodalar ko'rildi. Bularning hammasida metafora usulida kontseptlar namoyon bo'ladi. Ular esa biz o'rganayotgan semantik

maydonga tobe. Bu birliklarning ichidan “Meal” ingliz kontseptining o’zga xosligi ko’rinadigan semantik xususiyatlari aniqlandi. Shuning bilan birgalikda nikoh, oila, avlod, sulola, qarindoshchilik munosabatlari institutlarining milliy- o’zga xos tomonlari e’tirof etiladi. “Why truly,” said he, “I have little time upon my hands; and if you will be so good as to atke care of me, in return for the money I pay over” – for the Bigwig family were not above his money – “I shall be relieved and much obliged, considering that you know best.” (Charles Dickens,71)

Ingliz leksik va frazeologik birliklarning ko’pi o’zbek tilida qisman ekvivalentlarga yega. Buni “madaniy umumiylik” deb olsa bo’ladi, ya’ni real borliqni, haqiqatni aqlan bir xil, bir tarzda ifodalash.

Muayyan til oilasiga tegishli bo’lgan va bo’lmagan tillar sistemasidagi turli til yaruslarini chog’ishtirib tadqiq qilish keyingi yuz yillikda keng tus olganligining boisi ham shundadir. Umuman, tuzilishi jihatdan qardosh bo’lgan va bo’lmagan tillarni qiyosiy tipologik tadqiq qilish ham nazariy ham amaliy nuqtai nazardan ahamiyatli hisoblanadi. Zero, bunday tadqiqotlar til taraqqiyotining umumiy va o’ziga xos an’alarini aniqlash imkonini beradi. Qiyosiy tipologiya bir tilda ma’lum grammatik shakllar orqali ifodalanagan ma’no ikkinchi bir tilda qanday vositalar asosida ifodalanishi, ushbu chog’ishtirilayotgan tillardagi til birikmalarining ma’no ko’lami jihatdan mos kelishi-kelmasligini aniqlash uchun ham yordam beradi.

Metaforik strategiyalar universal bo’lib konkret metaforik iboralarda muntazam o’z aksini topadi. Ular konkret til kollektivi uchun tipik bo’lib abstrakt kategoriyalarni anglash borasida mazkur madaniy ananalarni saylab aks etadi, ularning esa o’z navbatida mavjudligi, turli ekstralingvistik faktorlar tufaylidir.

Bu izlanishida ko’rilgan material shuni isbot qiladi-ki so’nggi yillarda qadimiy qarindoshchilikni anglatadigan metaforalar kundalik nutqda avvalgidek ishlatiladi va yuksak emotsiv imkoniyat bilan ajralib turadi. Ovqatlanish uchun tashkil etiladigan tadbir va jarayonlarning metaforik namoyishi – ananaviy obrazlardan biridir.

Dasturxon ingliz madaniyatida ham o’zbek madaniyatida ham ko’pgina hollarda qondoshlik metaforasini tahlil qilishda biz ingliz oilasi va o’zbek oilasining dasturxon atrofida o’zini tutishiga ifodalanadigan lingvistik xususiyatlarga e’tibor qaratadigan bo’lsak, quyidagi o’xshash va farqli jihatlarini kuzatish imokoniyatiga egamiz. Xususan inglizlarda quyidagi iboralar topildi: lay the table, keep a good table, keep open table, clear the table, va boshqalar. O’zbek tili lug’at boyligida ingliz tilidagi table so’zining ekvivalenti bo’lgan “dasturxon” so’zi mavjud bo’lib, berilgan so’z bog’liq ushbu etnosning madaniyatini ko’rsatadigan lingvistik nuqtai nazardan shakllangan bir qancha iboralari mavjud: Dasturxonga o’tirmoq – ovqatlanishga o’timoq. Dasturxonga qaramoq – yeb-ichib o’tirmoq. Lingvistik tadqiqotlarda qiyoslash etalonining uchta asosiy metodi shakllandi (Gak 1989: 16): mazkur etalon qiyoslanayotgan tillardagi xususiyatlarning “ma’lum yo’nalishda

taqqoslanishi” sifatida qabul qilinishi mumkin (Koseriu 1989: 70), ushbu etalon barcha qiyoslanayotgan tillarning o’ziga xos xususiyatlaridan tashkil topishi mumkin va nihoyat u “metatil” (Xel’big 1989: 311) sifatida namoyish etilishi mumkin. Ya’ni taqqoslanayotgan til va til hodisalari nazariy invariant belgilarining universal ko’rinishini tashkil etishi mumkin.

Bu metaforik iboralar korpusini tahlil qilib shuni qayd etsa bo’ladiki, ingliz tilidagi taom bilan bog’liq so’zlarning stilistik jihatdan rang-barang va yorqin metaforik ko’chirmalar orqali yangicha ma’no kasb etadi.

Ingliz so’zi “table“ o’zbek so’zi “dasturxon“ ga nisbatan keng ma’noliroq va boshqa leksik-semantik materialni ham o’z birligida saqlaydi. Shuni ta’kidlash joizki, ma’nolar qamrovi, kelib chiqishi turli tillarga tegishli bo’lgan so’zlar biror etnosga o’zlashgach ham semantik ham ma’nosi boyib borishi mumkin, turli ma’no bilan bog’liq bo’lgan iboralar hisobiga kengayadi. O’zbek tili morfologiyasida esa rod tushunchasining yo’qligi, mazkur tilda faqatgina gendar tushunchasidagi qon-qarindoshlik nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Oiladagi munosabatlarning o’zaro bog’liqligi «tselestremitel’noy i soedinitel’noy svyazi» (Apresyan 2001: 241) sifatida namoyon bo’lishi mumkin.

Biror bir jarayoning o’ziga xos milliy xususiyatlarining rivojlanishida va uning lingvamadaniy nuqtai nazardan uning madaniy boyligiga aylanishi o’sha xalqning etnik xususiyatlari, mentaliteti, diniy qarashlari zahirida taraqqiy etadi.

Jumladan, ingliz obrazli iboralaridagi “have supper, breakfast, dinner” va shu kabi birikmalar o’ziga xos tarixi jarayon, taraqqiy yo’liga ega.

Shunday qilib, “meal” tushunchasi inglizlar uchun bitta jamoani tabiiy ehtiyojni qondirish, oilaviy udum-a’nanalar turi, aristokratik madaniyat shakli kabi tushunchalarni qamrab oladi.

Izlanishimiz rivojida biz metodika va analiz(uslub va tahlil)larimizni tarqatish lozim deb o’ylaymiz, bu dissertatsiya izlanishimizda ishlatilgan kontsepto-sferalar va o’z ishimizda o’rganilgan: “ Shaxslararo munosabatlar“, “Status rol munosabatlar“, “ Etnikaro munosabatlar “ va hokazo, shuningdek qilingan nazariy xulosalarimizni boshqa lingvokulturalar imkon qadar ekstrapolyatsiya o’rnatish lozim deb o’ylaymiz.

Masalan: «...With the exception of the suit of clothes I carry about with me, the whole of my wearing apparel is at present at my uncles» (Ch.Dickens).

Tahlilarga asoslangan holda ingliz oilasidagi ichki shaxslar o’rtasidagi munosabatlar xususidagi xulosalarga to’xtaladigan bo’lsak, inglizlardagi eng yaqin kishilar bu ularning oila a’zolari hisoblanadi va nuklear oilani tashkil qiladi.

Bajarilgan izlanishlar shuni ko’rsatadi-ki, ingliz tilida “meal” tilmadaniyat kontsepti milliy – madaniyat va milliy – til xususiyatlariga ega va kirishi juda qiyin bo’lgan yopiq mikrodunyodan iborat nuklear oilaga tayanadi. Shunday qilib, bir-biriga qo’yilgan “jamiyat” yaqqol ifoda langan, bu tilning semantik birliklari va tilda ishlatiladigan og’zaki formalarda o’z tasdig’ini topadi. O’zbek tilidagi “meal” ijtimoiy jamiyat bilan birgalikda

=====

mavjud bo'ladi. Oila faqatgina er-xotin tushunchasi bo'lib qolmasdan, er tomonidagi qon qarindoshlar guruhi ham tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fillmore, C. J. Frame Semantics and the Nature of Language. Annals of the New York Academy of Sciences, 1976.
2. Minsky, M. A. A Framework for Representing Knowledge. New York: McGraw-Hill, 1975. (Freym nazariyasining asosiy ishi)
3. Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Апресян, Ю. Д. Интегральное описание языка и системная лексикография. Избранные труды, Том II. Москва, 2001. (Matnda eslatilgan - Апресян 2001: 241)
5. Gak, V. G. К сопоставительному изучению лексики и фразеологии. Москва, 1989. (Matnda eslatilgan - Gak 1989: 16)
6. Koseriu, E. Синхрония, диахрония и история. Москва, 1989. (Matnda eslatilgan - Koseriu 1989: 70)
7. Хельбиг, Г. Проблемы языкознания и сопоставительной грамматики. Москва, 1989. (Matnda eslatilgan - Хельбиг 1989: 311)
8. Слышкин, Г. Г. Лингвокультурные концепты и метаконцепты. Волгоград: Перемена, 2004. (Lingvokulturologiya nazariyasi)